

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**"MARKAZIY OSIYO UYG'ONISH DAVRI ILM-FAN
VA MADANIYATINI TADQIQ ETISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI"
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMANI
MATERIALLARI
16-17 DEKABR 2022-YIL**

**МАТЕРИАЛЫ
МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ:
“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ
НАУКИ И КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНО-
АЗИАТСКОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ”
16-17 ДЕКАБРЯ 2022 ГОДА**

**MATERIALS
INTERNATIONAL CONFERENCE ON THE TOPIC:
“ACTUAL PROBLEMS OF RESEARCH OF
SCIENCE AND CULTURE OF THE CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE”
DECEMBER 16-17, 2022**

UDK:1
BBK:87/1
F-1/21

“Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi **xalqaro** ilmiy anjumani materiallari to‘plami.
—Guliston: Universitet, 2022. -320 bet.

To‘plamga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 7-martdagи 101-F-sonli Farmoyish bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi” asosida bo‘lib o‘gan “Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan xalqaro ilmiy anjumani materiallari Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri mutafakkirlari ilmiy merosining jahon tamaddunidagi o‘rnı; Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri merosini o‘ranish holati; Uyg‘onish davri va Uchinchi renessans poydevori: aloqadorlik, vorisiylik va o‘ziga xoslik hamda Uyg‘onish davri allomalari merosidan Yangi O‘zbekistonda yoshlar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida foydalanish muammolari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tavsiyalar, tajribalar va boshqa tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va unda keltirilgan dalillarga mualliflar to‘la mas’uldirlar.

Mas’ul muharrirlar: f.f.d., prof. B.O.To‘rayv, f.f.n., prof. R.J.Mahmudov.

Taқrizchilar: f.f.d., prof. Z.Davronov, f.f.d., prof. I.Soifnazarov, f.f.d., prof. B.Ochilova.

Tahrir hay’ati: R.Mahmudov, S.Ismoiov, Y.Karimov, B.G‘ofurov, U.Mavlyanov.

UDK:1
BBK:87/1
F-1/21

© “Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani materiallari to‘plami.

© Guliston davlat universiteti, 2022.

КИРИШ

Марказий Осиё қадим замонлардан буён инсоният маданий тараққиётининг марказларидан бири эканлиги илмий жамоатчилик томонидан эътироф этиб келинади. Унинг қадимий илдизлари турли инқирозлар сабаб тўлиқ сақланамаган, уларнинг тарих кўзгусида хира изларигина сақланиб қолганлиги яхши маълум. Аммо тарихнинг кейинги даврларида, аникроғи, IX-XII ва XIV-XV асрларда ушбу ҳудуд илм-фан ва интелектнинг марказига айланганлиги билан алоҳида ажralиб туради. Аждодлар мероси, улар қолдирган илм-фанга оид асарлар халқнинг энг ноёб, ҳеч нарса билан алмаштириб бўлмайдиган бебаҳо бойлиги ҳисобланади. Агар халқ шу меросдан узоқлашар, бебаҳра бўлар экан, унинг ўзлигига, келажагига хатарли таҳдидлар юзага келиши, унинг йўлдан адашиши жуда осон содир бўлади.

Янги Ўзбекистонда тараққиёт стратегияси доирасида олиб борилаётган ислоҳотлар халқимиз олдига янги мақсадлар қўйиш, инқироз даврларининг иллатлари ва асоратларидан қутулиш имкониятини бермоқда. Бу эса, албатта, ўзликка қайтишни, аждодлар мероси ва анъаналарини давом эттиришни кун тартибига қўяди. Хусусан, Президентимиз Ўзбекистонда янги уйғониш – Учинчи Ренессанс даврининг пойдеворини қуриш гоясини ва унинг айни вақти келганлигини илгари сурмоқда. Чунончи, парламент ва халқимизга йўлланган Мурожаатномада ҳам: “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улугбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимииз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим”, дея алоҳида таъкидланди.

Хозирда аждодлар меросини ўрганиш, улар асосида ёш авлодни тарбиялаш масалаларига катта эътибор бериб келинмоқда. Масалан, Халқаро ислом цивилизацияси марказининг бунёд этилаётгани, унинг аждодлар меросини тадқиқ этишнинг локомотиви бўлиши мақсад қилинганлиги ҳам фикримизни тасдиқлайди. Юртимизда юз мингга яқин қўлёзмалар мавжудлиги ва уларнинг аксарияти ҳали тадқиқотчисини кутиб ётганлиги масаланинг нақадар жиддий эканлигини анлатади. Бу саъй-ҳаракатлар замирида ўтмиш ва келажакни маданий боғлашдек эзгу мақсадлар мужассамлиги бизларни қувонтиради.

Ҳар бир ренессанснинг содир бўлиши бир қанча омиллар, ижтимоий-сиёсий, маданий ҳодисалар таъсирида юз берган. Гулистон давлат университетида ўтказилаётган “Марказий Осиё Уйғониш даври илм-фан ва маданиятини тадқиқ этишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий анжуман соҳа мутахассисларини масалани тадқиқ этиш, учинчи ренессанснинг пойдеворини барпо этиш муаммоларини замонавий ёндашувлар асосида таҳлил қилиш имкониятини бериши билан аҳамиятлидир.

Зеро, биз бугун улуғ мақсадлар сари интилаётган Янги Ўзбекистоннинг ўтмиши ва келажагини туташтирувчи муҳим нуқтада турибмиз.

М.Т.Ходжиев, ГулДУ ректори, т.ф.д., проф.

<i>Абдунасирова Ҳ. АЛИШЕР НАВОЙИ ИЖОДИДА ЁШЛАРНИ МАҶНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ МУАММОЛАРИ</i>	237
<i>Абдурахмонов А.А. ЎҚУВЧИ-ЁШЛАР ТАРБИЯСИ ВА ЯНГИ УЙГОНИШ ДАВРИ</i>	239
<i>Алламуратова Н.Т. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ ЭСТЕТИК ТАФАККУРИ РИВОЖЛАНИШИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ</i>	243
<i>Атамирзаев И. ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРНИНГ МАҶНАВИЙ-ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	245
<i>Бекмуродов Ҳ. ШАХС ТАРБИЯСИДА МИЛЛИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА ИДЕАЛНИНГ ЎРНИ</i>	247
<i>Гофуров Д.Б. КУРАШ - БОТИРЛАР СПОРТИ</i>	249
<i>Галдиева М.Д. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ</i>	251
<i>Мамадиева Н., Аҳмаджонов У. ЁШЛАРНИ БАГРИЕНГЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА УЙГОНИШ ДАВРИ МУТАФАККИРЛАРИ ФАЛСАФИЙ МЕРОСИННИНГ ЎРНИ</i>	253
<i>Fayzullayeva O. SHE'RIY TURKUMLARDA ISTIBDOD MANZARALARI</i>	256
<i>Rahmatova S.T., Berkinov O.T. BUGUNGI KUN YOSHLARINING MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISHDA ABDURAHMON JOMIY MEROSIDAN FOYDALANISH</i>	259
<i>Раззоқов Қ. ШАЙХ НИЗОМИДДИН АВЛИЁНИНГ ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ</i>	260
<i>Shamiddinova O'.K. OILAVIY ZO'RAVONLIKKA BARHAM BERISH VA AYOLLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH MASALALARI</i>	263
<i>Сирожидинов Х.С. АХЛОҚ ВА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТ ФЕНОМЕНЛАРИДАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ДУНЕҚАРАШНИ ШАКЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШ</i>	266
<i>Садикова Р. ИБН СИНО МАҶНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ</i>	269
<i>Усманова Х.М. МАҶНАВИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	272
<i>Sultanova L.S. MUHAMMAD MUSO AL-XORAZMIY VA IBN SINO MEROSINING BARKAMOL AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI O'RNI</i>	273
<i>Xo'jabekova G., Qo'chqorova Z. OILA MUQADDASLIGI</i>	276
<i>Хўжахонов И. ЁШЛАРДА МАҶНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ ИММУНИТЕТ ШАКЛЛАНИШИДА ҲУҚУҚИЙ ОНГНИНГ РОЛИ</i>	278
<i>Холбеков Н.Д. МИЛЛИЙ МАҶНАВИЙ ХАВСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИНГ ЎРНИ</i>	281
<i>Бозаров Д.М. ИСЛОМ ФАЛСАФАСИДА «ИЛМ», «АҚЛЬ» ВА «ДИН» ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИ ВА ФАРҚИ</i>	283
<i>Холназарова Д.М. ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТГА ОИД ҚАРАШЛАРИ</i>	285
<i>Закирова Н. ЁШЛАР МИЛЛИЙ МАҶНАВИЯТНИ ШАКЛАНТИРИШДА ТАРИХИЙ ОНГ ВА ХОТИРАНИНГ ЎРНИ</i>	287
<i>Abduvaliyeva J.A. YUksak Ma'naviyatli Yoshlarni Tarbiyalashda O'rta Osyo Almomalarining Ilmiy Meroslarining O'rni</i>	290
<i>Jabborov J., Kurbanov Q. Yoshlar Tarbiyasasi va Globalizm Muammolari</i>	292
<i>Yokubova M.I. JAHON ILM-FANI VA FALSAFASIDA: MUSO AL-XORAZMIY</i>	294
<i>To'xtayeva M.X. IMOM BU xoriyning "AL-ADAB AL-MUFRAD" ASARI: ODOB-AXLOQ MANBAI</i>	297
<i>Алиев Б. XX АСР БОШЛАРИДАГИ ТУРКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ – АХЛОҚИЙ ФИКРЛАР</i>	300
<i>Асатуллоев А.А. БИР МАҶРИФАТПАРВАР ҲАЁТИГА НАЗАР</i>	303
<i>Қодирова Ф.Ш. САНЬАТШУНОСЛИК ДИСКУРСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ТИЛ АМБИВАЛЕНТ ФЕНОМЕНИ СИФАТИДА</i>	305
<i>Аманов F., Сайфутдинова Г. ИЖТИМОИЙ-МАҶНАВИЙ МАКОНЛАРДА МИЛЛИЙ ФОЯ ВА МАФКУРАЛАРИНИГ ТАРИХИЙ-ФУНКЦИОНАЛ АҲАМИЯТИ</i>	309
<i>Арипов А.А. ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ХАВСИЗЛИГИ ВА БАГРИЕНГЛИК ФЕНОМЕНИНИ ШАКЛЛАНИШИ ВА ЮКСАЛИШИДА УЙГОНИШ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ</i>	311
<i>Мундарижа</i>	315

мавжуд ижтимоий муносабатлар мавжмуасига киради. У қанчалик ақилли, тадбиркор, ишбилиармон бўлмасин, бутун ҳаётий фаолияти одамлар жамоасидаги, миллат, давлат ҳаётидаги муносабатлардан ташқарида бўлмайди. Бу борадаги боғлиқлик ҳар бир шахсга муйян бурч ва масъулият талабларига риоя қилиш мажбуриятини ҳам юклайди. Инсонлар муайян жамиятда бирлашиб яшашининг асосий шартларидан бири ҳам миллий ва фуқаролик масъулияти бирлиги ҳисобланади. Масъулиятни сезмай ўз ҳуқуки учун курашиш ҳам маънавий заифликнинг белгисидир. Бурч, масъулият туйғуси инсон ўз ҳаққи, ҳуқуқини, жамият олдидаги бурчини англашга асосга бўладиган маънавий заминдир. “Чунки, бунга тарих гувоҳ... Бизга берган буюк неъмат – маънавиятга ҳеч қачон ҳиёнат қилмаганмиз, қилмаймиз ҳам” [4: 70].

Хулоса қилиб айтганда, бугун ёшларни юксак интеллектуал салоҳиятга эга маънавий баркамол шахс бўлиб етишишида миллий маънавий тарбия муҳим эканлигини вақтнинг ўзи исботламоқда. Бинобарин, қайсики жамиятнинг, халқнинг миллий маънавияти, дину диёнати кучли ва мукаммал бўлса, ундан жамиятга ҳар қандай бузғунчи ёт ғоялар, экстремистик оқимлар ўзларининг ёвуз қарашлари билан раҳна сола олмайди. Чунки, ўз тарихи ва ўзилигини англаган, ўзининг миллий маънавияти билан қуролланган жамиятни енгib бўлмайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И. А. “Хотира боқийдир, қадр – мұқаддас” // 15 том. –Т.: Ўзбекистон, 2007.
2. Файбуллаев О. Ёшлар онгига истиқлол ғоясининг сингдиришнинг ижтимоий моҳияти ҳақида. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 2005. № 12.
3. Раҳимов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқарашини шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. – Т.: Ўзбекистон, 2008.
4. Норматов И. Маънавият – бебаҳо бойлик. //Эркин ва фаровон ҳаётни юксак маънавиятсиз қуриб бўлмайди. –Т.: Ўзбекистон, 2006.

YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSLARINING O'RNI

Abduvaliyeva J.A. – ChDPI, O'zbekiston

Endilikda jahon ma'naviyati va ma'rifati saltanatida o'z o'rınlariga ega bo'lgan ulug'larimizni teran anglash, o'rganish va ulug'lash vaqtি keldi. Afsuski, salkam 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik totatitar tuzum hukmronligi davrida respublikamiz yosh avlodi, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "...necha yillar bizni tariximizdan, dinmizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar, - natijada ular o'z xalqning tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy madagiyatidan bahramand bo'lish, o'rganishdan mahrum bo'lib keldi" [1].

Mustaqillik tufayli o'rganish, tahlil etish imkoniyatiga ega bo'lgach, ona zaminimiz ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish biz yoshlarning vazifamiz, inchunun, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

IX-XV asrlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shartli ravishda «Renessans» (uyg'onish) davri deb atashadi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo'lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari etishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning tez sur'atlarda taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga ta'sir etdi. Bu jarayon, ayniqsa halifa Ma'mun davrida (813-133 yy.) Bag'dodda «Bayt-ul-hikma» (Donolar uyi) tashkil etilgan paytda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-ximiya va ilmu nujumga oid asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda Markaziy Osiyodan etishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlar ham katta rol o'ynadilar.

O'rta Osiyoda tabiiy-ilmiy tafakkuri rivojining boshlanishi buyuk allomalar al-Farg'oniy va al-Xorazmiylar nomi bilan bog'liqdir. Ularning har ikkovi ham Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma"ning etakchi ilm sohiblaridan sanalgan. 1998 yilda al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Uning vafoti 861 yildir. U mashhur falakkiyotshunos olim. Uning asosiy asarlari "Astronomiya va astralyabiya kirish", "Falakdan bo'ladigan sabablar", "Astralyabiya fani usullari", "Osmon harakatlari va yulduzlar ilmi" va boshqalardir. Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" kitobi o'sha davrdagi astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo'lgan.

Unda qadimgi falakiyotshunoslik bilimlari, uning qoidalari, usullari bayon qilingan. Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima etilib, ko'p asrlar davomida Yevropada astronomiya bo'yicha qo'llanma, darslik sifatida xizmat qilib kelgan. U Yevropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan.

Al-Xorazmiy (780-850 yy.) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimdir. Uning ilmu-nujum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri "Kitob al-jabr va al-muqobala" asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan – algebraning vujudga kelishiga zamin bo'ldi. U tenglamalarni echishning ikki usulini – al-jabr, ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya'ni bir hil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf qildi.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy fikri rivojini Abu Nasr Farobiysiz (873-950) tasavvur etish qiyin. U "Sharq Aristoteli", "Ikkinch muallim" degan unvonga sazovor bo'lgan mutafakkirdir. Sharqda qadim Yunonistonning eng mashhur faylasufi Aristotel "Birinch muallim" deb yuritilgan. Farobiy ko'p tillarni bilgan qomusiy olimdir. U yaratgan asarlarning umumiy soni 160 ta bo'lib, uni ikki guruhg'a ajratish mumkin: 1) qadimgi Yunon faylasuflari va tabiatshunoslarini – Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalarning ilmiy merosini tarjima qilish, sharhlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) o'rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar. Masalan, "Aristotelning "Metafizika" asariga izoh", "Aristotelning "Osmon sistemasi" kitobiga izoh", "Aristotelning "Etika" kitobiga sharh", "Substanstiya haqida so'z", "Masalalar manbai", "Qonunlar haqida kitob", "Bo'shlik haqida kitob", "Musiqa haqida so'z", "Fozil odamlar shahri" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Farobiyning fikricha insonning va jamoatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidadir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim deb biladi. Shunda jamiyat etuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi,adolatni yaxshi ko'ruchchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Farobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmashlik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Jahon madaniyati va ma'rifatiga katta hissa qo'shgan, Sharq va Yevropada "Shayx-ur-rais – olimlar boshlig'i" unvoniga ega bo'lgan alloma Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) ilmiy merosi biz uchun bebaho xazinadir. U o'z umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning "Tib qonunlari" nomli 5 jilddan iborat kitobi asrlar davomida Sharq va Yevropada medistina bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ibn Sino yoshligida zo'r mehnat, izlanish, g'ayrat bilan ilmlarni o'rganishga kirishgan. U bu haqida shunday yozadi: "Uyquga ketgan vaqtimda ham o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. Shu holatda ko'p masalalar tushumda menga ayon bo'lardi... shu zaylda hamma ilmlarni, mustahkam egallay oldim. Insonning imkoniyat darajasida egallaydigan darajada bilimni egallab oldim. Aristotelning "Metafizika"sini "qirq bir marta qayta o'qidim". U menga hatto yod bo'lib ham qoldi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, men uni va uning maqsadlarini tushuna olmasdim", - deb yozadi u tarjimai holida. Ibn Sino bu muammoni Farobiyning Aristotel "Metazifika"siga yozgan sharhini o'qib hal qiladi.

Yuqoridagi keltirilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy me'rosi ham buyukdir. Ushbu ilmiy merosdan hozirgi zamon bilan uyg'unlashtirilgan holda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun muhimdir. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar, ayniqsa, o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
2. Жумаева Н.А. Ўрта Осиё алломаларининг илмий мероси. –Бухоро: Дурдона, 2013.
3. Rasulov, A. R. (2021). O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o'zgarish va muammolar. Academic Research in Educational Sciences, 2(2),

YOSHLAR TARBIYASI VA GLOABALIZM MUAMMOLARI *Jabborov J., Kurbanov Q.– GulDU, O'zbekiston*

Globalizatsiyaning mohiyatini yoritishda, birinchi navbatda, ushbu tushunchaning asosiy mazmunini aniqlash kerak. Globalizatsiya – bu oxirgi yillarda rivojlanayotgan zamонавиy dunyoda eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda globallashuv masalasi siyosatshunoslar, iqtisodchilar, sotsiologlar, faylasuflar, geograflar tomonidan muhokama etilayotgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolgani sir emas. Terminning o'zi keng ilmiy fanga postmodernizm (1980 – 90 – yillarlarda klassik nazariyalar neoliberalizm, xususan, neorealizm) tushunchasini yoritgan holda 1990 – yillarda kirib kelgan. Globallashuv iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar va boshqa turli sohalarda milliy davlat chegaralarining shaffoflashuvi jarayoni bo'lib, hozirgi kunda globallashuv bilan bog'liq jarayonlarni ta'riflash uchun ko'pgina boshqa terminlar ham qo'llanilmoqda – postmodernizm muhit, axbarotlashuv asri, texnoglobalizm va boshqalar. Globallashuv jarayonining boshlanishini olim va siyosatshunoslar turli davr hamda ijtimoiy, siyosiy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'laydi.

Globallashuv jarayonining boshlanishi va sabablarini aniqlash borasidagi qarashlarning ko'pligi, uning mohiyati borasidagi fikrlarning turli xilligi bilan bog'liq albatta. Rus olimi V.M. Ryumin globallashuvni uch bosqichga ajratadi [1: 7]. Va har bir bosqichni jahonda sodir bo'layotgan muayyan voqeа hodisalar bilan bog'laydi. Jumladan, uning fikricha birinchi bosqich, buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq, ikinchi bosqich sanoat inqilobi hamda bozor almashivuning kengayishi natijasida paydo bo'lgan yagona jahon bozor makonining shakllanishi natijasida boshlangan (XIX asr) uchinchi bosqichi esa XX asr oxirida paydo bo'lgan zamонавиy axborot texnologiyalari mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi chegaralar buzilganligi bilan bog'langan.

Globallashuv atamasini dastlab amerikalik olim T.Levitning 1983 yili "Garvard biznes revyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi. Muallif yirik transmilliy